

## IMOM AL- BUXORIY BUYUK MUHADDIS OLIM

*Termiz davlat universiteti akademik litseyi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

*Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola buyuk alloma, hadisshunos olim, islom olamida nomi bugungi kunda ham katta ehtirom bilan tilga olinuvchi ajdodimiz Imom al-Buhoriyning hayoti, ularning amalga oshirgan ulkan vazifalari ya'ni hadis ilmini chuqr o'r ganib, ushbu ilmni keng yoyilishida ko'rsatgan xizmatlari haqida ma'lumotlar jamlaydi.

**Kalit so'zlar:** *ilmiy-ma'naviy meros*, “*muhaddislar sulton*”, “*Al-Jome' as-Sahih*”, *xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi*, «*Al-adab al-mufrad*», *hadisshunoslik maktablari*.

Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning beba ho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini to'plab, xalqimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylanmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti marhum Islom Karimov shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyatini ravnaq toptirishga qo'shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, haqli ravishda musulmon olamida “muhaddislar sulton” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomizning muborak nomlarini hurmat-ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish eng ishonchli hadislar to‘plami – “Al-Jome' as-Sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba’ bo‘lib, ahli islom e’tiqodiga ko‘ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i hisoblanadi. Mana, o‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, haq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda”[1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017

yilning 14-15 aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog‘ida Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: “Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo‘nim topgan ushbu maskanda o‘ziga xos ma’naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o‘ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o‘rganib ketsin. Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi”[2]. Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Hadis ilmining yetuk namoyondasi bo’lgan Imom Buxoriy o’zining “Sahih Buxoriy” asari bilan hadis ilmiga ulkan hissa qo’shdi. Ko’p ming yillik tarixga ega xalqimiz jahon sivilizatsiyasi uchun juda katta xissa qo’shganini takidlash joizdir. Yurtimiz jahon sahnasiga juda ko’p yetuk olimu-fuzalolarni yetishtirib bergen. Misol uchun buyuk matematik va astronomlar Al-Xorazmiy, Al-Farg’oniy, buyuk tabib sifatda tanilgan Abu Ali Ibn Sino, mashhur geograf Al-Beruniy shular jumlasidandir. Bundan tashqari VII asrda yurtimiz hududiga Muqaddas Islom dini kirib keldi. Islom dini kirib kelgach yurtimiz aholisi Islom dini qabul qilibgina qolmay rivojlanishi hamda keyingi avlod uchun to’la to’kis yetib borishi uchun juda katta xissa qo’shadi. Bu ishda Imom Al-Buxoriy, Al-Moturudiy, At-Termiziyy, Al-Marg’iloniy larning mehnatlarini ta’kidlab o’tmasdan ilojimiz yo’q. Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy, ko’niyalari “Muhaddislar Imomi”. Bizga ma’lumki “Imom” so’zi yo’l boshlovchi insonga nisbatan qo’llaniladi, “Muhaddis” esa hadis to’plovchilarga nisbatan qo’llaniladi. Bundan kelib chiqadiki bunday ulug‘ ko’niyaning Imom Buxoriyga nisbatan berilishidan bilishimiz mumkunki bu zot muhaddislarning yo’l boshlovchisi bo’lgan, Imomi bo’lgan. Bu zotning shoh asari Qur’oni karimdan keyin turuvchi “Al-Jome as-sahih”( Sahih hadislar) o’z ichiga 7397 ta sahih(to’g’ri, rost) hadisni jamlagan asardir. Bu asar orqali Islom dining asoslarini hamda Rasulalloh (solallohu alayhi vasallam) ning juda ko’plab nasihatlarini o’ganish mumkindir. Bu kitobning boshqa hadis kitoblardan farqi shundaki

u sahih asardir. Ya’ni bu asardagi hadislarning to’g’riliqi boshqalardan ko’ra ishonarliroqdir. Bu asar bekorga Qu’roni karimdan keying ikkinchi kitob deya tan olinmagan. Inson qo’li bilan yozilgan asarlar ichida esa so’zsiz birinchi kitobdir[3].

Buyuk ajdodimizning hayot yo’liga to’xtalib o’tar ekamiz shuni alohida aytish lozimki, hozirgi kunda Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha Madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (alayhisallom) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo’llanma hisoblanadi. “Hadis ilmining Amir ul-mo’mimni” degan nomga sazovor bo’lgan muhaddis olim, Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) (810.21.7. Buxoro — 870.31.8. Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘i) — islom olamining yirik mutafakkiri. “Muhaddislar imomi”, “hadis ilmining sulton” deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5—6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (solallohu alayhi vasallam) ning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Nishopurlik Al-Hakimning ma’lumotiga qaraganda Imom Buxoriyning ustozlari soni 90 kishi atrofida bo’lgan. Ayni zamonda o’zlari ham “Minglab shogirdlar yetishtirganlar – Muslim Ibn Hajjoj, Iso At-Termiziyy, An-Nasoriy, Abu Zur’a, Yusuf Al-Farobiyy, Abu Bakir Ibn Xuzayma kabi mashhur muhaddislar, shular jumlasidandir”[4]. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan hadislar bo‘yicha saboq oladi.

Bu vaqtida Rasulullohning sahabalari, sahabalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammad(s.a.v)ning hadislarini to‘plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta’kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani “Al-jome’ as-Sahih”dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: «Al-jome’ as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-tarix al-kabir», «At-tarix as-sag‘ir», «At-tarix al-avsat», «At-tafsir al-kabir» «Birrul validayn», «Asmo as-sahoba», «Kunyalar» va boshqalar. Ular orasidagi «Al-jome’ as-sahih» asari islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli «Al-jome’ as-sahih» asari «Eng ishonchli hadislar to‘plagan» nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislarning roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Askaloniying hisobiga ko‘ra «Al-jome’ as-sahih»dagi hadislarning soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘silsa kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX-XII asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi[5]. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa’yu ko‘chishlari bu vaqtida Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan „Kitob alfavoid“ („Foydali ashyolar haqida

kitob“), „AlJomi’ alkabiyr“ („Katta tayanch“), „Xalq af’ol alibod“, („Alloh bandalari ishlarining tabiat“), „AlMusnad alkabiyr“ („Katta tayanch“), „Attafsir alkabiyr“ („Katta tafsir“), „Kitob alxiba“ („Xayrehson haqida kitob“) va boshqa asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” (Ishonarli to‘plam) asari haqida so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta’limotida Qur’oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniadi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin ta’lif etilgan hadis kitoblarida sahih va g‘ayri sahih hadislar aralash holda berilgan bo‘lib, o‘quvchi ulardagi biror hadisni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun o‘quvchi o‘sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan so‘rashga majbur bo‘lardi. Mana shunday murakkab davrda shu kabi buyuk asarning yozilishi taqsinga sazovor albatta. Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Imom Buxoriyning ijodiy merosi o‘zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to‘la-to‘kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat - T., "O’zbekiston", 1994- yil
2. Shavkat Mirziyoev. Insonparvarlik, ezhulik va bunyodkrlik – milliy g’oyamiz poydevoridir. – T.: “Tavsir” 2021-yil.
3. Abdusattor Shayx. Imom Buxoriy ustozil asotiziyn va imomil muhaddisiyn.... Damashq, “Dor al-qalam” 2007-yil.
4. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis, 1-jild. Al-Jome as-Sahih. – T.: 1991, 5-bet.
5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sahihi\\_Buxoriy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sahihi_Buxoriy)